

## QO‘QON XONLIGINI O‘RGANISHDA MUSTAQILLIK YILLARIDA NASHR ETILGAN MANBALARNING O‘RNI

*Yakobjanov J.J*

*Nizomiy nomidagi O‘zMPU  
“Tarix” kafedrasida dotsenti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O‘zbek davlatchiligining ajralmas qismi sanalgan Qo‘qon xonligining tahlil etilgan. O‘zbekiston mustaqillikni qo‘lga kiritgandan so‘ng manbalarni o‘rganish va ularni nashr etish ishlari sezilarli oshdi. Shu qatori Qo‘qon xonligi tarixiga oid bo‘lgan manbalar ham talaygina qayta nashr etildi. Aynan mana shu manbalar orqali Qo‘qon xonligini o‘rganish tarixchilar va keng jamoatchilikka yanada qulaylik tug‘dirdi. Maqolada mana shunday manbalar va ularning xonlikni o‘rganishdagi o‘rni haqida so‘z boradi.

**Kalit so‘zlar:** Qo‘qon xonligi, manba, mustaqillik, nashr, tahlil, Rossiya imperiyasi, davlatchilik, Toshkent, ilmiylik, xolislik, tadqiqot.

## РОЛЬ ИСТОЧНИКОВ, ОПУБЛИКОВАННЫХ В ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТИ, В ИЗУЧЕНИИ КОКАНДСКОГО ХАНСТВА

*Якобжанов Ж.Ж.*

*доцент кафедры «История»  
НПУУ имени Низами*

**Аннотация:** Статья посвящена истории Кокандского ханства как неотъемлемой части узбекской государственности. Отмечается, что после обретения Узбекистаном государственной независимости активизировалась работа по выявлению и публикации исторических источников. Значительное количество переизданных материалов, касающихся Кокандского ханства, сделало данную тему доступной для исследователей и широкой общественности. В статье анализируются ключевые источники и их роль в изучении истории Кокандского ханства».

**Ключевые слова:** Кокандское ханство, источники, независимость, публикация, анализ, Российская империя, государственность, Ташкент, научность, объективность, исследование.

# THE ROLE OF SOURCES PUBLISHED DURING THE YEARS OF INDEPENDENCE IN THE STUDY OF THE KOKAND KHANATE

*Yakobjanov J.J*

*Associate Professor of the Department of  
"History" of the NPUUZ*

**Annotation:** This article chronicles the history of the Kokand Khanate, which was an integral part of the Uzbek statehood. After Uzbekistan gained independence, the work of studying sources and publishing them increased significantly. Along with this, many sources related to the history of the Kokand Khanate were republished. It is through these sources that the study of the Kokand Khanate became more convenient for historians and the general public. The article discusses such sources and their role in the study of the khanate.

**Keywords:** Kokand Khanate, source, independence, publication, analysis, Russian Empire, statehood, Tashkent, scientificity, impartiality, research.

## 1. KIRISH

O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan so‘ng davlatchilik tarixi masalalari, xususan, Qo‘qon xonligi tarixini o‘rganish imkoniyatlari ham kengayib, xonlik tarixining turli jihatlarini yoritib bergan bir qator tadqiqotlar amalga oshirildi. Amalga oshirilgan har bir tadqiqotning asosida tarixiylikka, ilmiylikka, xolislikka asoslanilgan qarashlar va tamoyillar ustuvor omil sifatida birinchi o‘ringa ko‘tarila boshladi. Tarix fani sohasidagi ilmiy izlanishlarning keyingi yillarda asosiy tadqiqot ob‘ektlaridan biriga aylangan Qo‘qon xonligi tarixining turli yo‘nalishlarida mustaqillik yillarida o‘nlab dissertatsiyalar himoya qilindi, adabiyotlar va monografiyalar nashr etildi, yuzlab maqolalar e‘lon qilindi va bir qancha konferensiyalar o‘tkazildi.

Amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar bilan bir qatorda mustaqillik yillarida mahalliy tarixnavislar tomonidan yozilgan manbalarning nashr etilishi o‘quvchilar oldida tarixni haqqoniy o‘rganishda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda.

Tarix ilmining rivojlanishi ko‘p jihatdan yozma manbalarning o‘rganilishi va ularning ilmiy muomalaga kiritilishi bilan bog‘liqdir.

## **2. TADQIQOT METODOLOGIYASI**

Dastlab qo‘qonlik tarixchilarning eski o‘zbek tilida bitilgan asarlari, jumladan, Ibratning “Farg‘ona tarixi”, Mirza Olim Maxdum Hojining “Tarixi Turkiston”, Mirza Olim Mushrifning “Ansob us-salotin va tavorix ul-xavoqin” kitoblari qayta nashr etildi. Ushbu nashrlar tadqiqotchi va izlanuvchilarni ajdodlarimizning ma’naviy merosi bilan yaqindan tanishtirish jihatidan ahamiyatli edi.

Jumladan, qayta nashr qilingan dastlabki asarlardan biri - Is‘hoqxon Ibratning “Tarixi Farg‘ona” asari tadqiqotchi H.Bobobekov tomonidan o‘rganilib, 1991 yilda qisqacha sharh bilan nashr etildi. Ushbu asar Qo‘qon xonligi tarixini, rus bosqinchilariga qarshi olib borilgan kurashlarni, ijtimoiy-siyosiy hayotini o‘rganish va tahlil qilishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Muhammadyunus ibn Muhammadamin (taxallusi Toib) ning “Tarixi Aliquli Amirlashkar” asari Sh.Vohidov tomonidan kirillchaga o‘g‘irliib, 1996 yilda “Sharq yulduzi” jurnalida chop etilgan. Mazkur asar Turkiston xalqi qaxramoni Aliquli amirlashkarining faoliyati haqida zarur ma’lumotlarni beradi. Bundan tashqari, asarda XIX asr davomida xonlikning Rossiya bilan diplomatik aloqalariga oid diqqatga sazovor ma’lumotlar mavjud. Ushbu ma’lumotlar Qo‘qon xonligining tashqi siyosati, diplomatiyasi xususida tasavvur shakllanishida muhim o‘rin tutadi.

**3. TADQIQOT NATIJALARI VA MUHOKAMA** 1998 yilda O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov tomonidan tarixchilar oldiga qo‘yilgan vazifalar natijasida o‘zbek davlatchiligi masalasiga yangicha yondashuv paydo bo‘ldi. Aynan manbalarning qayta nashr etilishi borasida ham shu davrdan keyin e’tibor yanada kuchaydi. Manbalarning tadqiqot ob’ekti sifatida tanlab olinib, uni izohlar va xulosalar bilan nashr etish hamda shu asosida dissertatsiya ishini yoqlash keng tus oldi.

Jumladan, mahalliy tarixnavislar tomonidan yozilgan manbalarning nashr etilishi borasida Sh.Vohidovning ishlari diqqatga sazovordir. U 1998 yilda “XIX-

XX asrning boshlarida Qo‘qon xonligida tarixnavislikning rivojlanishi” mavzusida doktorlik dissertatsiyasini yoqladi. Muallif keyinchalik ushbu dissertatsiya materiallari asosida “Qo‘qon xonligida tarixnavislik” nomli monografiyasini chop ettirdi. Tarixchi Sh.Vohidovning asarlari tufayli ilmiy jamoatchilikda XIX–XX asrning boshlarida Qo‘qonda o‘ziga xos tarixnavislik maktabi vujudga kelganligi hamda bu maktabga mansub bo‘lgan muarrixlar asarlarining Qo‘qon xonligi tarixini o‘rganishda g‘oyat muhim o‘rin tutganligi haqida aniq tushuncha va fikr shakllandi.

#### **4. MUHOKAMA: TADQIQOT NATIJALARINING NAZARIY VA AMALIY AHAMIYATI**

Shuningdek, 1999 yilda D.Sangirova tomonidan xonlik tarixiga oid muhim manbalardan yana biri - Muhammad Aziz Marg‘iloniyning “Tarixi Aziziy” nomli asari o‘rganilib, “Muhammad Aziz Marg‘iloniyning “Tarixi Aziziy” asari muhim tarixiy manba” mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilingan. Unda ushbu asarning Qo‘qon xonligi tarixini o‘rganishdagi ahamiyatini ko‘rsatib o‘tilgan. Jumladan, bu asarda Xudoyorxonning oxirgi boshqaruvi davrida xonlikdagi ijtimoiy-iqtisodiy ahvol, “*mahrumi meros*” va boshqa yangi soliqlarning joriy etilishi, Po‘latxon qo‘zg‘oloni hamda Farg‘onaning chor Rossiyasi tomonidan bosib olinishi to‘g‘risida qimmatli ma’lumotlar berilgan. Ko‘p o‘tmasdan Sh.Vohidov bilan D.Sangirova hammualliflikda Muhammad Aziz Marg‘iloniy asarining asl qismi bo‘lgan beshinchi bobini izohlar bilan nashr etdi. Mazkur manbani o‘rganish orqali Qo‘qon xonligining siyosiy tarixi, Rossiya imperiyasiga qarshi xalq harakatlari haqida tasavvur hosil bo‘ladi.

Mirzo Olim ibn Mirzo Rahim Toshkandiyning “Ansob us- salotin va tavorix al xavoqin” asari “Qo‘qon xonligining tarixi” nomi bilan 2001-yilda nashr etildi. Ammo mazkur nashrda asarning to‘liq matni chop etilmagan va unga izohlar berilmagan. Bu kamchiliklarni 2007-yilda Sh.Vohidov rahbarligida bir guruh tarixchilar tomonidan rus tilida izohlar va ko‘rsatkichlar bilan nashr etilishi orqali bartaraf etilgan. Mazkur asar ham Qo‘qon xonligi tarixini o‘rganishda qimmatli manba hisoblanadi. U Qo‘qon tarixnavislik maktabi vakillaridan biri Mirzo Olimning boshidan kechirgan voqealari hamda ko‘pgina tarixiy manbalar asosida

yozilgan. Ushbu asar xonlikning Rossiya imperiyasi itoatiga o'tgandan so'ng yozilgan. Unda Rossiya imperiyasining o'lkani bosib olishdagi shafqatsizliklari qattiq qoralanadi. Jabr va zulmning haddan oshib ketishi hamda jamiyatning inqirozga duch kelgani ta'kidlanadi. Shuningdek, asarda xonlik siyosiy hayotiga oid ma'lumotlardan tashqari Qo'qonda yashab ijod etgan ayrim shaxslar haqida ham qimmatli ma'lumotlar saqlanib qolgan.

Muhammad Hakimxon to'raning "Muntaxab at-tavorix" asari ham Sh.Vohidov tomonidan tarjima qilinib, dastavval fors-tojik tilida arab imlosida Tokioda, so'ngra esa o'zbek tilida nashr etildi. Ushbu nashr o'zining mukammalligi va bir necha qo'lyozma nusxalarning qiyosiy tahlili asosida yaratilganligi bilan oldingi nashrlaridan ajralib turadi. Asarda Buxoro va Qo'qon xonliklarining tashkil topishidan boshlab, XIX asrning 40-yillarigacha bo'lgan tarixi to'liq tasvirlangan. Asar umumjahon tarixiga bag'ishlangan bo'lsa-da, ammo uning hajmi va ahamiyatiga qarab, mazmunan O'rta Osiyo tarixiga oid bo'lganligi tufayli birinchi navbatda unga mahalliy tarixni yorituvchi asar sifatida qarash mumkin. "Muntaxab at-tavorix" XIX asrda O'rta Osiyodagi mavjud ijtimoiy-siyosiy tuzum va madaniy hayotni o'rganishda muhim manbalardan biridir.

O'.Sultonov esa Qo'qon xonligiga oid yana bir muhim manba - Muhammad Solih Toshkandiyning "Tarixi jadidayi Toshkand" asari ustida izlanishlar olib borib, "Solixxo'ja va uning "Tarixi jadidayi Toshkand asari" muhim tarixiy manba sifatida" mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan va "Muhammad Solihxo'ja va uning "Tarixi jadidayi Toshkand asari" nomli monografiyasini chop ettirdi". Mazkur manbada Toshkent va uning atrof hududlari tarixi, ayniqsa, uning ruslar tomonidan bosib olinishi batafsil yoritilgan. Asarni o'rganish orqali Rossiya imperiyasining O'rta Osiyoga nisbatan bosqinchilik siyosati hamda tajovuzkorona harakatlarini ko'rish mumkin. Ko'rsatib o'tilgan manba muallif tomonidan Toshkent shahri tarixining yoritilishi nuqtai nazaridan o'rganilgan. Tadqiqotchi XIX asrda Toshkent shahri topografiyasi, shaharning mashhur kishilari, aholining mashg'ulotlari kabi masalalarga asosiy e'tiborni qaratdi.

Shuni ham qayd etish lozimki, Qo‘qon mahalliy tarixchilari tomonidan yaratilgan asarlar nafaqat O‘zbekistonda, balki xorijiy mamlakatlarda ham o‘rganilib, nashr etila boshlandi. Jumladan, 1991 yilda Tohir Xo‘jandiyning “G‘aroyibi sipoh” asari Tojikiston Respublikasining Xo‘jand shahrida nashr etildi. O‘zbek va yapon olimlari B.Babadjanov, Sh.Vohidov va X.Kamatsularning hamkorligi tufayli 2002 yilda Muhammad Yunusxo‘ja Toibning “Tuhfai Toib” asari chop etildi. Mazkur asarda Qo‘qon xonligining Rossiya imperiyasining bosqinchilik siyosatiga qarshi kurashi aks ettirilgan.

## **5. XULOSA**

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston Respublikasining mustaqillik yillarida Qo‘qon xonligi tarixiga oid yozma manbalarning tarjima va qayta nashr etilishi tarixiy tadqiqotlar bazasini kengaytirishga xizmat qildi hamda ilmiy izlanishlarni jonlantirishga turtki bo‘ldi. Bundan tashqari, ushbu manbalarning nashr va tahlil etilishi kelajakda nafaqat Qo‘qon xonligi, balki o‘zbek davlatchiligi borasida olib boriladigan tadqiqotlar uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Mazkur manbalarning aksariyati XIX asrda, Rossiya imperiyasi bosqini davrida hamda mualliflarning o‘zlari guvohligida yaratilgani bois o‘sha davr tarixi birmuncha xolisona hamda haqqoniy ravishda yozilgan deyish mumkin. Shu sababli, manbalarning qayta nashr etilishi o‘quvchilar va tadqiqotchilar oldida o‘zbek davlatchiligini tarixini haqqoniy ravishda, ayniqsa Rossiya imperiyasining bosqinchilik siyosatini xolisona o‘rganishlarida asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

### **Adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Ибрат. Фарғона тарихи. Тошкент: Мерос, 1992. 327 б.
2. Мирзо Олим Махдумхожа. Тарихи Туркистон. Қарши: Насаф, 1992. 148 б.
3. Мирза Олим Мушриф. Қўқон хонлиги тарихи. Тошкент: Шарқ, 1995. 128 б.
4. Маммадюнус Тоиб. Тарихи Алимқули Амирлашкар // Шарқ юлдузи. 1996. №1. 215-223- б. №2. 208-223- б.
5. Сангирова Д. Муҳаммад Азиз Марғилонийнинг “Тарихи Азизий” асари муҳим манба сифатида. Тошкент, 1999. 165 б.
6. Муҳаммад Азиз Марғилоний. Тарихи Азизий. Тошкент: Маънавият, 1999. 240 б.

7. Муҳаммад Ҳакимхон тўра.. Мунтахаб ат-таворих. Islamic Area Studies Project Central Asian research Series.Токио, 2002. 128 б.